

O'ZINI O'ZI FAOLLASHTIRISH XUSUSIYATINING TALABALIK DAVRIDA NAMOYON BO'LISHI

Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, "Psixologiya"
kafedrasi o'qituvchisi, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Mazkur maqolada shaxsning o'zini o'zi faollashtirish xususiyatining mazmuni, xorij psixolog olimlarining psixologik nazariyalari hamda shaxs hayotida o'zini o'zi faollashtirishning ahamiyatli jihatlari keng yoritilgan. Shuningdek, talabalarda o'zini o'zi faollashtirishning namoyon bo'lishiga doir tadqiqot ishining miqdor va sifat tahlili keltirilgan.

Tayanch tushunchalar: shaxsning o'zini o'zi faollashtirishi, shaxs faolligi, vaqtni mo'ljalga olish, qadriyatlar, inson tabiatiga nazar, bilish ehtiyojlari, ijodkorlikka intilish, avtonomlik, spontanlik, o'z-o'zini tushunish.

ПОЯВЛЕНИЕ САМОАКТИВНЫХ ХАРАКТЕРИСТИК В СТУДЕНЧЕСКИЙ ПЕРИОД

Курбанбоев Азимбек Назирбой угли

*Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами,
Преподаватель кафедры «Психология», доктор философии (PhD) по
психологии*

Аннотация. В данной статье широко освещено значение самоактивации человека, психологические теории зарубежных психологов, важные аспекты самоактивации в жизни человека. Также представлен количественный и качественный анализ исследований проявления самоактивности у студентов.

Ключевые понятия: личная самоактивация, личная активность, тайм-менеджмент, ценности, человеческая природа, познавательные потребности, творчество, автономия, спонтанность, самопонимание.

APPEARANCE OF SELF-ACTUALIZATION CHARACTERISTICS IN THE STUDENT PERIOD

Kurbanbaev Azimbek Nazirboy ugli

*Tashkent State Pedagogical University named after Nizami,
Teacher of «Psychology» department, doctor of philosophy (PhD) in psychology*

Annotation. In this article, the meaning of self-actualization of a person, the psychological theories of foreign psychologists, and the important aspects of self-actualization in a person's life are widely covered. Quantitative and qualitative analysis of research on the manifestation of self-actualization in students is also presented.

Key words: personal self-actualization, personal activity, time management, values, human nature, cognitive needs, creativity, autonomy, spontaneity, self-understanding.

Shaxsning o'zini o'zi faollashtirishi, uning faollik xususiyatlari psixologiya sohasida ko'plab psixolog olimlar tomonidan o'rganilgan va uning mazmun-mohiyati ochib berilgan. Shu nuqtai nazardan olganda, shaxsning o'zini o'zi faollashtirish masalasining mazmun-mohiyati hamda bu borada psixolog olimlarning nuqtai nazarlariga e'tiborimizni qaratmoqchimiz.

Shaxsni va uning faolligini tushunish borasida G'arb psixologiyasining boshqa bir nazariy yo'nalishi "insonparvarlik psixologiyasi" birinchi qarashda psixoanalitik yo'nalishga nimasi bilandir zid bo'lib ko'rinadi. Lekin keyinchalik ular o'zlarining asosiy ta'riflariga ko'ra, bir-birlariga yaqin bo'lib ketgani aniq-ravshan bo'lib qoladi. Faollikning manbayini kashf etishga urinar ekan, o'tmishga bolaning "anglanilmagan holatga surib

chiqarilgan” taassurotlari va kechinmalariga murojaat qiladigan psixoanalitiklardan farqli ravishda rivojlanishi K.Rodgers, A.Maslou, G.Ollport va boshqalarning ilmiy ishlari bilan bog’liq bo’lgan “insonparvarlik psixologiyasi” kelajakka, o’zligini eng ko’p darajada namoyon qilishga (o’zini o’zi faollashtirishga) intilishni shaxs faolligining asosiy omili deb hisoblaydi.

A.Maslou, K.Rodgers va “insonparvarlik psixologiyasi”ning boshqa vakillari o’zini o’zi faollashtirishni o’z mohiyati e’tibori bilan egosyentrik (o’zini hammadan ustun qo’yish) jarayonga aylantirib yuborishadi. O’zligini faollashtirish, A.Maslou fikricha, o’zini va faqat o’zini ro’yobga chiqarish uchun intilishdirki, bu ijodiy faollik va “xususiy Men”ini to’laqonli namoyon qilish uchun intilish kabi fazilatlariga ega bo’lgan “o’zini faollashtiruvchi shaxslar”ning (A.Maslouning fikricha, ularning soni unchalik ko’p emas – 1 foiz atrofida bo’ladi) o’ta individualligi haqida dalolat beradi. Haqiqatda esa agar o’zligini faollashtiruvchi shaxsni o’z xatti-harakatlari va ishlari bilan o’zini ijtimoiy jihatdan shart qilib qo’yilgan aloqalar orqali bog’langan boshqa odamlarning hissiy va aqliy jihatlaridagi o’zgarishlarni ta’minlovchi sifatida personajlashuvini amalga oshiradigan faoliyat va munosabat sub’yekti tarzida tushuniladigan bo’lsa, u holda A.Maslou va boshqalar tomonidan e’lon qilingan o’zini faollashtirish uydirmaligidan boshqa narsa bo’lmay qoladi. Haykalni yasayotgan haykaltarosh marmarda o’z rejasini mujassamlashtirishdek ijodiy intilishni ro’yobga chiqaradi va avvalambor, o’sha intilishning o’zini anglab yetgan bo’ladi. Shaxsning A.Maslou konsyepsiyasiga o’xshash tarzda “o’zligini namoyon etishi” va “o’zini faollashtirishi” kabi har xil nazariyalar aynan mana shu vaziyatni ushlab oladi va shu bilan o’ralashib qoladi. Bu holda san’atkor nima uchun o’z ijodining mahsulini iloji boricha ko’proq odamlarga va, ayniqsa, o’zicha “qadriga yetmaganlar” deb hisoblaydiganlarga, ya’ni o’zining referent guruhiga namoyish qilishga intiladi. Shunchaki o’zligini namoyon qilish, buyumda ro’yobga chiqarish, nihoyat buning uchun pul olish bilan o’zini faollashtirish ham tugallanganday bo’lib tuyuladi. Shubhasiz, ijodiy faoliyat sub’yekt-obyekt (rassom-kartina) ishi bilan tugallanmaydi va maqsad rassomning o’zi “boshqalar” hisoblaydiganlar uchun ahamiyatli bo’lgan muqarrar personajlashuvini amalga oshirish imkonini beradigan sub’yekt-obyekt-sub’yektga oid bog’lanish (rassom-kartina-tomoshabin)ning navbatdagi bog’ini hosil qilinmaguniga qadar ro’yobga chiqmagan bo’lib qoladi. Lekin, umuman olganda, “insonparvarlik psixologiyasi”, shuningdek, psixoanaliz nazariyasi inson shaxsining mohiyatini, uning faolligini va harakatlantiruvchi kuchlarini izohlab bera olmaydi, chunki aksariyat psixologiyadagi bu yo’nalishlar noto’g’ri falsafiy nuqtai nazarlarga tayanadi, bunday nuqtai nazarlarga tayangan holda psixologiya fanining eng muhim nazariy va metodologik muammolarini hal etib bo’lmaydi. Yolg’iz individning o’zini unga dushman bo’lgan jamiyatga qarama-qarshi qo’yish shaxsning psixoanalitik konsyepsiyalariga ham, ekzisyensialistik konsyepsiyalariga ham xos xususiyatdir. Haqiqatdan ham agar shunday bo’lsa, u holda shaxs uchun abadiy mojarodan qutilish juda ham amri maholdir: yoxud barcha shakllarda moslashuvchanlik, yoxud muhitni xush ko’rmaslik (undan o’zligini chetga olish yoki nonkonformizm yuz berishi kerak), yoxud bamisoli biron-bir tashqi narsaga mut’yelik qilmagan holda o’zligini namoyon qilishdan iborat hayotiy rejani amalga oshirish maqsadida o’zligida saqlanib qolish lozim bo’ladi.

O’zini o’zi faollashtirish nazariyasi inson mavjudligining doimiy mavzusi, ya’ni amalga oshirishning moddiy, emotsional va ruhiy tomonlarini izlash hamda inson imkoniyatini ro’yobga chiqarishga bo’lgan kuchli xohish masalasiga to’xtalib o’tadi.

Ushbu nazariya inson psixologiyasida keng qo’llaniladi, lekin o’zini o’zi faollashtirish qo’llanmalar muqovalarida chegaralanadigan tushuncha emas. U shaxsiy rivojlanish va o’zining potensialini ro’yobga chiqaradigan insonga aylanishingizga yordam beradigan loyihadir.

Kashfiyotchi Tomas Edison shunday ta’kidlagan edi: “Agar biz qo’limizdan keladigan hamma narsalarni qilganimizda, o’zimizni tom ma’noda hayratda qoldirgan bo’lardik”. Bu o’zini o’zi faollashtirish nazariyasining mohiyati hisoblanadi.

K.Yungga ko'ra, o'zini o'zi faollashtirish – bu ongli va ongsiz holatlarni birlashtirish orqali ro'y beradigan shaxsiy rivojlanish jarayonidir.

O'zini o'zi faollashtirish ayrim so'z va tushunchalar, xususan, o'zini o'zi kashf qilish, o'z-o'zini refleksiyalash, o'zini o'zi anglash va o'z-o'zini tadqiq etish kabilar bilan o'xshash deya qaralishi mumkin.

Tadqiqot ishimizda ilgari surilgan asosiy muammo talabalik davrida o'zini o'zi faollashtirish darajasini aniqlashdan iborat. Bundan ko'zlangan maqsad talaba shaxsida o'zini o'zi faollashtirishning qaysi tarkibiy tuzilmasini shakllanganligi o'rganiladi.

Talabalik davrida o'zini o'zi faollashtirishga qaratilgan diagnostika ishimiz uchun A.V.Lazukinning “Shaxsning o'zini o'zi faollashtirish darajasini diagnostika qilish” (N.F.Kalina tomonidan moslashtirilgan varianti) metodikasi tanlab olindi. Mazkur metodika talabalik davrida o'zini o'zi faollashtirishning 11 ta tarkibiy qismlari shakllanganlik darajasini o'rganish imkonini beradi. Tadqiqot metodikasi sinaluvchilar guruhida o'tkazilib, to'plangan ma'lumotlar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi hamda jadval va diagrammalarda aks ettirildi.

1-jadval

Talabalarda o'zini o'zi faollashtirishning namoyon bo'lishi

Shkala-lar nomi	Vaqtini mo'ljalga olish	Qadriyatlar	Inson tabiatiga nazar	Bilish ehtiyojlari	Ijodkorlikka intilish	Avtonomlik	Spontanlik	O'z-o'zini tushunish	Autosimpatiya	Aloqa o'rnatish	Muloqotdagi egluvchanlik
1-bosqich	12,9 %	19,4 %	3,2%	29%	12,9%	3,2%	3,2%	6,5%	3,2%	-	6,5%
3-bosqich	6,25 %	18,75 %	18,75 %	31,25 %	-	-	-	12,5%	-	6,25 %	6,25%

Metodika natijalariga ko'ra, 1-bosqich talabalarining 12,9%i va 3-bosqich talabalarining 6,25%i birinchi shkala (“Vaqtini mo'ljalga olish”) bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarni qayd etishdi. Bunday toifaga kiruvchi talabalar hozirgi vaqti bilan yashashadi hamda o'tmish xotiralari ularning bugungi kuniga xalaqit qilmaydi. Shuningdek, bunday talabalar hayotning ekzisensial qiymatini yaxshi tushunishadi, ya'ni “shu yerda va hozir” yashashadi, o'tgan vaqt bilan zavqlanmay, o'tmish bilan taqqoslamasdan va kelajakdagi muvaffaqiyatni oldindan taxmin qilmay, haqiqiy lahzadan bahramand bo'lishadi.

Shunga monand ravishda “Qadriyatlar” 1-bosqich talabalarida 19,4%, 3-bosqich talabalarida esa 18,75% ko'rsatkichi tashkil qiladi. Bunday shaxslar o'z qadriyatlarini to'la anglay olishadi, o'z-o'zini anglashni qadriyatlar bilan bog'laydi hamda bu qadriyatlar ularning hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Haqiqat, yaxshilik, go'zallik, halollik, ikkiyuzlamachilikning yo'qligi, hayotiylik, betakrorlik, kamolot, adolat, tartib, o'yin, o'z-o'zini ta'minlash kabi qadriyat turlarining ustunligi inson manfaatlarida manipulyasiya qilish istagidan uzoqroq bo'lishni, odamlar bilan uyg'un bo'lish va sog'lom munosabatlarga bo'lgan intilishni ko'rsatadi.

“Inson tabiatiga nazar” shkalasi bo'yicha 1-bosqich talabalarida 3,2% va 3-bosqich talabalarida esa 18,75% ko'rsatkichi aniqlandi. Bunday insonlar o'z qobiliyati imkoniyatlarining kuchiga ishonishadi, shaxslararo munosabatlarda samimiy, faol va kirishuvchan hisoblanishadi. Shuningdek, ular boshqalar bilan samimiy munosabatda hamda odamlarga nisbatan xayrixohlik, ishonch, halollik, betaraflik, yaxshilik xislatlariga ega bo'lishadi hamda o'zgalarga ishonishadi.

“Bilish ehtiyojlari” shkalasi bo‘yicha 1-bosqich talabalarining 29% va 3-bosqich talabalarining 31,25% yuqori natijalar qayd qilindi. Mazkur toifadagi talabalar yangilikka intiluvchi hamda o‘z talab va qiziqishlarining mohiyatini yetarli darajada anglay oladigan shaxslar hisoblanishadi. Bunday shaxslar o‘z-o‘zini anglaydigan, har doim yangi taassurotlarga tayyor bo‘lgan, yangi narsalarga qiziqadigan, yangilikka tashna, ko‘rganlarini qadrlaydigan insonlardir.

Metodikaning “Ijodkorlikka intilish” shkalasida 1-bosqich talabalarida 12,9% ko‘rsatkich, 3-bosqich talabalarida esa ushbu shkala bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlar qayd etilmadi. Bu shkalada yuqori natijalarni qayd etgan sinaluvchilar hayotda o‘z ustida ishlovchi, doimiy ravishda o‘zgacha narsalarni yaratishga moyil bo‘lishadi. Ular o‘z sohasida muttasil yangilikka intilishadi. Shu bilan bir qatorda, bu toifadagi insonlar yangi g‘oyalar bilan yashovchi, o‘z faoliyatida ijodiy munosabatga ega bo‘lishadi.

“Avtonomlik” shkalasi bo‘yicha 1-bosqich talabalarining 3,2% yuqori natijalarni ko‘rsatgan bo‘lsa, 3-bosqich talabalarida esa bu shkalada yuqori natijalar aniqlanmadi. Bunday shaxslar mustaqilikka intiluvchi hamda mustaqil fikr yurituvchi bo‘lishadi. Lekin shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, bu toifadagi insonlar mustaqil, erkin va avtonom bo‘lishiga qaramay, ular yolg‘izlikka intilishmaydi. Shu boisdan ham ushbu shkalada yuqori natijalarni qayd etgan sinaluvchilarni hayotda yolg‘iz bo‘lgan insonlar deb aytib bo‘lmaydi. Bundan tashqari ular o‘zini o‘zi qo‘llab-quvvatlash xususiyatlariga ham ega bo‘lishadi.

Yettinchi shkala “Spontanlik”da 3,2% ko‘rsatkichi 1-bosqich talabalarida namoyon bo‘ldi, 3-bosqich talabalarida esa mazkur shkala bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlar aniqlanmadi. Ushbu shkalada yuqori natijalarni qayd etgan sinaluvchilar hayotda o‘ziga nisbatan ishonchi yuqori bo‘lib, o‘z maqsadlariga yetishda faqatgina xayolga tayanib qolmasdan, real holatda intilishadi. Shu bilan bir qatorda, bunday shaxslar erkinlik, tabiiylik, o‘yin o‘ynash, kuch sarf qilmaslik kabi qadriyatlariga ega bo‘lishlari bilan tavsiflanadi.

“O‘z-o‘zini tushunish” shkalasi bo‘yicha 1-bosqich talabalarida 6,5% va 3-bosqich talabalarida esa 12,5% ko‘rsatkichi aniqlandi. Bunday shaxslar o‘z imkoniyatlarini, ehtiyojlarini, istaklarini boshqalarga nisbatan yaxshiroq tushunishadi. Bundan tashqari, mazkur shkala bo‘yicha yuqori natijalarni qayd etgan insonlar hissiyotlilik, o‘z istak va ehtiyojlariga nisbatan sezgirlik kabi xususiyatlarga ega bo‘lishadi.

To‘qqizinchi shkala – “Autosimpatiya” natijalari bo‘yicha 3-bosqich talabalarida yuqori natijalar qayd etilmagan bo‘lsa, 1-bosqich talabalarining 3,2% ushbu shkala bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlarni qayd etganligi ma’lum bo‘ldi. Bunday shaxslarning o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabati ijobiy tusda bo‘lib, ular o‘zlariga adekvat baho berishadi. Shuningdek, ularda o‘z imkoniyatlaridan xavotirlanish hissi tug‘ilmaydi va o‘ziga nisbatan hurmat hissi mavjud bo‘ladi.

Shu o‘rinda metodikaning “Aloqa o‘rnatish” shkalasi bo‘yicha 1-bosqich talabalarida yuqori natijalarni ko‘rsatishmadi, 3-bosqich talabalarida esa mazkur shkala bo‘yicha 6,25% ko‘rsatkichi aniqlandi. Mazkur shkalada yuqori natijalarni qayd etgan sinaluvchilar hayotda o‘zgalar bilan muloqot qilishda qiyinchiliklarga duch kelishmaydi, chunki ularda muloqot ko‘nikmalari yaxshi rivojlangan bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda, bunday insonlar boshqalar bilan uyg‘un, kuchli va xayrli munosabatlar o‘rnatish qobiliyatiga ega bo‘lishadi.

Metodikaning so‘nggi shkalasi, ya’ni “Muloqotdagi egiluvchanlik” natijalari bo‘yicha 1-bosqich talabalarida 6,5%, 3-bosqich talabalarida 6,25% ko‘rsatkichi aniqlandi. Bunday shaxslar o‘zgalar bilan munosabatda egiluvchanlik xususiyatlariga ega bo‘lib, yangi sharoitlarga moslashib keta olishadi. Shu bilan bir qatorda, ular o‘zgalar bilan muloqotda o‘z fikrlarini yetarli darajada ifoda qilish qobiliyatiga ega bo‘lishadi. Bundan tashqari bu toifadagi insonlarda boshqalar bilan samimiy muloqot qilish, o‘z-o‘zini anglash qobiliyatlari mavjud bo‘lib, ular o‘zgalarini boshqarish xususiyatiga moyil bo‘lishmaydi.

Metodika natijalaridan ko'rinadiki, talabalik davrida o'zini o'zi faollashtirish ulardagi qadriyatlar tizimi va bilishga bo'lgan munosabatlarning qaror topganligi bilan belgilanadi. Shuningdek, vaqtni mo'ljalga ola bilish, o'zaro aloqaga intiluvchanlik kabi sifatlarni taraqqiy etganligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, inson shaxsida o'zini o'zi faollashtirish muhim hisoblanadi. Aynan shaxs o'zini o'zi anglash, o'zini o'zi baholash, o'zini o'zi tarbiyalash va kamolga yetkazishda o'zini o'zi faollashtirish yaqqol namoyon bo'ladi. Insonlarda o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlar tizimining qaror topishi ularda o'zini o'zi faollashtirishning ortishiga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Леонтьев, А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. /А.Н Леонтьев - М.: Академия, 2004 - 121с.
2. Хьелл, Л., Зиглер, Д. Теории личности. - СПб.: Питер, 2003. - 608 с
3. Маслоу, А. Мотивация и личность / А. Маслоу. - СПб.: Евразия, 2001. - 475 с
4. Давлетшин М.Г. Танланган илмий ишлар тўплами. – Тошкент: ТДПУ, 2008, 81 б.
5. Газиев Э.Г. Психологические основы развития самоуправления учебной деятельностью у школьников и студентов: Автореф. дис... докт. психол. наук. – М.: МГУ, 1992. – 38 с.